



QANDLI DIABET KASALLIGINING SABABLARI VA DAVOLASH CHORALARI

Fotima Sharipova Nazarovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy biologiya kafedrası

Abdurashidova Muyassar Azimovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Qandli diabet (diabetes mellitus) — bu organizmda insulin yetishmovchiligi yoki insulin ta'sirining yomonlashishi bilan bog'liq bo'lgan surunkali metabolik kasallikdir. Ushbu maqolada qandli diabetning sabablari va uning davolash usullari muhokama qilinadi. Kasallikning rivojlanishiga olib keladigan omillar, ya'ni genetik faktorlar, atrof-muhit sharoitlari, ovqatlanish tartibi va jismoniy faollik kabi holatlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, qandli diabetni davolashning zamonaviy usullari va profilaktika choralari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola oxirida qandli diabetning samarali davolash va oldini olish usullari haqidagi xulosa taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *qandli diabet sabablar, davolash usullari ,insulin ,metabolizm ,profilaktika ,sog'lom turmush tarzi, kasallikning irsiylanish turi .hozirda ushbu kasallikning ko`rsatkichlari va ko`rilayotgan chora tadbirlar,qandli diabetning 1-tipi,qandli diabetning 2- tipi.*

Asosiy qism

Qandli diabet (xalq orasida «saxar kasalligi» deb ham aytiladi) — tanada uglevod va suv almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasallik. Me'da osti bezi funksiyasi buzilishi oqibati hisoblanadi. Me'da osti bezi insulin



gormonini ishlab chiqaradi. Insulin qandni qayta ishlashda qatnashadi. Bu gormonsiz organizm qondagi glyukoza miqdorini me'yorda ushlab tura olmaydi va uning miqdori oshib ketadi. Qandli diabet, qand kasalligi — organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum. Abu Ali ibn Sino bu dardga alohida e'tibor beradi. "Suv qanday ichilgan bo'lsa, shu holda chiqadi", deb yozadi u. Bemorning ko'p suv ichishi boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqaradi va bemor juda ozib ketadi. Davolarga to'xtab tabib: "Bemorga sovuq mizojli suyuqliklar ichir, sovuqjomga sol, nordon ayron ichir, mevalar ber, yalpiz damlab ichir, ya'ni bemorni ho'lla, sovut", deydi. Bu — kasallik odam badanida issiqlikning oshib ketishi tufayli paydo bo'lishini bildiradi. Qand kasalligi tarixiy tibbiy manbalarga ko'ra, nasliy bo'lishi ham mumkin. Qandli diabetda qonda qand moddasi keskin ko'payib, siydik bilan chikib turadi (tarkibida qand moddasi bo'ladi), tashnalik, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi. Kasallikning irsiy yoki hayotda orttirilgan, shuningdek, insulinga bog'liq (diabetning 1 turi) va insulinga bog'liq bo'lmagan (diabetning 2 turi) turi farq qilinadi.

atseton moddasining ortishi va uning siydikda paydo bo'lishi. Qandli diabet bilan og'rikan bemorlar uchun foydali parhez, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, qand miqdorini kamaytiruvchi dorilar qabul qilish yaxshi naf beradi. Qandli diabet — bir umrlik kasallik, uni butun hayot davomida davolash zarur. To'lato'kis davolanmaydigan va qon tarkibidagi glyukoza miqdori uzoq vaqt yuqori saqlanadigan bemorlarda Qandli diabetning tomir asoratlari — diabetga xos angiopatiyalar (makro va mikroangiopatiyalar) namoyon bo'ladi. Bu barcha a'zolarining (teri, muskullar, nerv va hokazo) kapillyarlarini shikastlaydi. Diabetga xos mikroangiopatiyalar buyrak, ko'z, oyoq va boshqalar a'zolarida ko'proq va ertaroq kuzatiladi. Qandli diabet ateroslerozning rivojlanishi, o'z navbatida, yurakning ishemik kasalligi (stenokardiya, miokard infarkti), miyada qon aylanishining buzilishi (bosh aylanishi, miya insulti) va hokazoga olib Qandli



diabetning har ikkala turida ham davolashdan asosiy maqsad iloji boricha qondagi qand miqdorini sogʻlom kishilardagi koʻrsatkichga yaqinlashtirish, yaʼni kompensatsiya holatiga erishishdir. Natijada organizm ortiqcha glyukozani siydik orqali chiqarib yuborishi kuzatiladi. Kasallikni turlash muhim hisoblanadi, chunki bu kasallikning turlari boshlangʻich davrda bir-biridan tubdan farq qiladi va davolash ham shunga qarab belgilanadi. Kasallik qancha uzoq davom etaversa, uni davolash usullari bir-birga oʻxshab ketaveradi

Qandli diabet bilan kasallangan bemorlar quydagi tartibda davolanadi bunda bemor kasallikning qaysim bosqichida ekanligiga qarab turli davolash chora tadbirlari olib boriladi

1-TIP DIABET

Shuningdek insulinga bogʻliq diabet deyiladi. Koʻpincha yoshlar, 40 yoshgacha boʻlgan, ozgʻin odamlar aziyat chekadi. Kasallik ogʻir kechadi, davolash uchun insulin beriladi. Sababi: organizm meʼda osti bezi hujayralarini yoʻq qiluvchi antitana ishlab chiqaradi. Diabetni 1-turidan butunlay davolanib boʻlmaydi, lekin baʼzi hollarda bez faoliyatini meʼyorda ushlab turib, parhezga amal qilinsa, kasallik bemorni ortiqcha bezovta qilmaydi. Doimiy ravishda sunʼiy insulin qabul qilish talab etiladi. Insulin oshqozon-ichak traktida parchalanib ketishi bois, u faqat ineksiya orqali ovqatlanish vaqtida kiritiladi. Qatʼiy parhezga amal qilib, ovqat ratsionidan yengil hazm boʻluvchi uglevodlarni (shakar, shirinliklar, mevali sharbatlar) butunlay chiqarib tashlash koʻrsatiladi.

2-TIP DIABET

Bu insulinga bogʻliq boʻlmagan diabet deyiladi. Koʻpincha yoshi kattalar, toʻlaroq, 40 yoshdan oʻtganlar aziyat chekadi. Sababi: hujayralarning oziq koʻpligidan insulinga taʼsirchanligining yoʻqolishidir. Kasallikni davolashda har doim ham insulin kerak boʻlavermaydi. Faqatgina malakali shifokor davolash



tartibini belgilay oladi. Avvalo bunday bemorlarga parhez buyuriladi. Shifokor tavsiyasiga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Tana vaznini me'yorga kelguncha asta-sekin, oyiga 2-3kg tushirib borish tavsiya etiladi. Parhezga amal qilmaganda qonda shakar miqdorini tushiruvchi dorilar, eng og'ir hollarda insulin buyuriladi.

Qondagi qand miqdorini me'yorida saqlab turishning asosiy yo'li qondagi glyukozani iloji boricha tez-tez aniqlash; bunday nazorat Qandli diabetning insulinga bog'liq 1 turida juda zarur. Uy sharoitida mustaqil holda qondagi glyukoza miqdorini aniqlashda maxsus reaktiv qog'ozlardan foydalanish mumkin. Buning uchun ukol igna yordamida barmoqdan bir tomchi qon reaktiv qog'ozga olinadi (qon qog'ozni bir chetidagi chiziqchalarga tushiriladi). Bir daqiqadan so'ng qog'ozdagi qon paxta bilan artib tashlanadi va yana bir daqiqa o'tgach, reaktiv qog'oz rangi shkala bilan solishtiriladi. Rangi eng yaqin bo'lgan shkala ko'rsatkichi shu qondagi glyukoza miqdorini mmol/l (mg%) da ifodalaydi.

Xuddi shunday usulda uy sharoitida siydikdagi qand miqdorini ham bemorlarning o'zlari mustaqil maxsus reaktiv qog'ozlar yordamida aniqlashlari mumkin. Agarda qonda yoki siydikda glyukoza miqdori baland bo'lsa, darhol tegishli davo muolajalarini amalga oshirish lozim. Bulardan tashqari, bemorlar tana vaznlarini ham haftada bir marotaba nazorat qilishlari hamda uni o'z bo'yi, yoshi va kasbiga mos bo'lgan me'yorda saqlab turishlari kerak. Qandli diabetda davo har bir bemorning umumiy ahvoli, kasallik alomatlari, qon, siydik tahlili va boshqalarga qarab tayinlanadi, u bosqichmabosqich olib boriladi. Davolanish muddati kasallikning og'irengilligi, o'tkazib yuborilgan yoki yangiligi va turiga bog'liq.

QANDLI DIABET BELGILARI VA ALOMATLARI

Kasallik belgilari bosqichma-bosqich rivojlanadi va sekinlik bilan namoyon bo'la boshlaydi. Asosan qonda glyukoza miqdorining yuqori bo'lishi kuzatiladi. Bemorlarda kasallik paydo bo'la boshlanganida quyidagi alomatlar qayd etiladi:



- Og‘izning doimiy qurishi;
- Qondirib bo‘lmas chanqoqlik;
- Kunlik siydik ajralishining oshishi;
- Tana vaznining kamayishi yoki birdan oshib ketishi;
- Kuchli teri qichishi va quruqlashishi;
- Teri va yumshoq to‘qimalarda yiringli yarachalar paydo bo‘lishi;
- Mushaklarning kuchsizligi va haddan tashqari terlash;
- Har qanday yaralarning qiyin bitib ketishi.

Qandli diabet kasaligining belgilari qolgan kasalliklardan ko‘ra yaqqol o‘zini namoyon qiladi va kasallikning dastlabki belgilari namoyon bo‘lishi bilan mutahasis shifokorga murojat qilish kerak bo‘ladi. Kasallik jiddiy asoratlar qoldirishi va koma holatigacha olib borishi mumkin. Kasallik asoratlariga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

Ko‘rishning buzilishi;

- Bosh og‘rig‘i va aqliy faoliyat pasayishi;
- Yurak og‘rig‘i, jigarning kattalashishi;
- Oyoqlardagi og‘riq va yurishning buzilishi;
- Teri, ayniqsa, oyoqlarda sezgirlik kamayishi;
- Yaralar paydo bo‘lishi;
- Qon bosimining oshishi;
- Yuz va oyoq shishishi;
- Kasaldan aseton hidi kelishi;
- Bosh aylanishi.

SABABLARI



Kasallik rivojlanishining asosiy sabablari quyidagilar: Irsiyat. Albatta, kasallik ta'sir etuvchi omillar bo'lmaganda rivojlanmaydi, lekin moyillik yuqori bo'ladi. Semizlik. Ortiqcha vazn ikkinchi turdagi diabet shakillanishiga olib keladi. Kasalliklar. Insulin ishlab chiqarish uchun javobgar beta hujayralarini shikastlanishiga olib keluvchi kasalliklar. Ularga pankreatit, me'da osti bezi saratoni, boshqa endokrin bezlar kasalliklari kiradi. Virusli infeksiyalar (qizamiq, suvchechak, yuqumli gepatit va boshqa kasalliklar). Ushbu infeksiyalari diabet rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, xavf ostida bo'lgan odamlar uchun. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi qandli diabet kasalligining sabablari, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni va zamonaviy davolash usullarini o'rganishdir. Shuningdek, maqola kasallikni oldini olish uchun amalga oshiriladigan profilaktika choralari tahlil qilishga qaratilgan.

Xulosa:

Qandli diabet — bu jiddiy surunkali kasallik bo'lib, uning rivojlanishi turli omillar, jumladan genetik va atrof-muhit faktorlari bilan bog'liq. Maqola davomida, qandli diabetning sabablari va uning davolash usullari tahlil qilindi. Hozirgi kunda kasallikni davolashda insulin terapiyasi, dorilar, dietalar va jismoniy faollik kabi usullar keng qo'llaniladi. Kasallikni oldini olish uchun sog'lom turmush tarzini yuritish, to'g'ri ovqatlanish va muntazam jismoniy faollikni ta'minlash zarur. O'z vaqtida davolash va profilaktika qandli diabetning salbiy ta'sirlarini kamaytirishga yordam beradi va bemorlarning umumiy hayot sifatini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. American Diabetes Association (ADA). (2020). Standards of Medical Care in Diabetes. *Diabetes Care*, 43(1), S66-S76.
2. World Health Organization (WHO). (2016). *Global Report on Diabetes*. WHO.



3. Shulman, G. I., & Rothman, D. L. (2020). Diabetes and its Metabolic Implications. *The Journal of Clinical Investigation*, 130(6), 2972-2981.

4. Zimmet, P., Alberti, K. G., & Shaw, J. (2001). Global and Regional Diabetes Prevalence Estimates for 2010 and 2030 and Implications for Intervention: Population and Prevalence of Type 2 Diabetes. *Diabetes Care*, 26(3), 1047-1053.

5. Parchure, S., & Khandelwal, A. (2021). Type 2 Diabetes: Etiology, Pathophysiology, and Treatment Advances. *Journal of Clinical Endocrinology*, 106(5), 1742-1754.

Qandli diabet kasalligi haqida o'qish uchun turli xil kitoblar mavjud. Quyidagi kitoblar diabet kasalligi haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va sizga kasallikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi:

6. "Diabetes For Dummies" (by Alan L. Rubin)

Ushbu kitob diabet haqida umumiy tushuncha, uning turli shakllari, davolash usullari va yengish yo'llari haqida oddiy va tushunarli tarzda ma'lumot beradi.

7. "The Diabetes Code: Prevent and Reverse Type 2 Diabetes Naturally" (by Dr. Jason Fung)

Dr. Jason Fung bu kitobda 2-toifa qandli diabetni tabiiy yo'l bilan qanday oldini olish va davolash mumkinligini ko'rsatadi.

8. "The 30-Minute Diabetes Cure: The 30-Minute Diabetes Cure: The Scientifically Proven Way to Reverse Type 2 Diabetes in Less Than a Month" (by Dr. Joel Furhman)

Ushbu kitobda diabetni qanday qilib o'zgarishlar orqali davolash va yaxshilash haqida ilmiy asoslangan yondashuvlar ko'rsatilgan.



9. "Diabetes Solution: The Complete Guide to Achieving Normal Blood Sugars" (by Dr. Richard K. Bernstein)

Dr. Bernstein kitobida 1-toifa va 2-toifa qandli diabetni boshqarish va normal qon shakarini saqlash usullarini taqdim etadi.

10. "The Diabetic Cookbook and Meal Plan for the Newly Diagnosed" (by Charlene G. Smith) Ushbu kitob diabetga chalinganlar uchun sog'lom ovqatlanish bo'yicha turli retseptlar va reja tuzishga yordam beradi.

11. "Think Like a Pancreas: A Practical Guide to Managing Diabetes with Insulin" (by Gary Scheiner) Bu kitob insulin bilan davolashning samarali usullari va qon shakarini boshqarish bo'yicha batafsil ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

12. "Type 1 Diabetes: Your Step-by-Step Guide to Understanding and Living with Type 1 Diabetes" (by Thomas L. Johnson) 1-toifa diabetga chalinganlar uchun ushbu kitob o'z holatlarini boshqarish va kundalik hayotda qandli diabet bilan yashash bo'yicha aniq ko'rsatmalar beradi. Bu kitoblar diabet kasalligi haqida chuqur bilim olish va kasallikni samarali boshqarish uchun yaxshi manba bo'lishi mumkin. Har bir kitob o'ziga xos yondashuvni taqdim etadi, shuning uchun siz o'zingizga mos bo'lganini tanlashingiz mumkin.